



1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik —  
vatanga xizmat demak!

2022-yil 25-yanvar, seshanba,  
9 (23.576)-son

**КУН  
ҲИКМАТИ**

Тарбиясиз  
бола жамиятга  
саводсиз,  
илмсиз  
боладан  
кўпроқ зарар  
келтиради

# Zarafshon



www.zarafshon.uz

m/zarnews.uz

https://twitter.com/zarnews\_uz

➔ Президент Фармонига кўра

## ЁШЛАРГА 50 МИЛЛИОН СЎМ ГРАНТ БЕРИЛАДИ

Давлат раҳбарининг 2022 йил 15 январда қабул қилинган "Туризм, маданият, маданий мерос ва спорт соҳаларини янада ривожлантириш учун қўшимча шароитлар яратиш тўғрисида"ги фармонида кўра:

**2022 йил 1 январдан 2023 йил 1 январга қадар** туризм фаолияти субъектлари ва авиаташувчиларнинг хорижий мамлакатлардан Ўзбекистонга чартер рейсларини ташкил қилиш бўйича харажатларнинг бир қисми хар бир хорижий турист учун, у республика ҳудудига камида беш кеча тунаб қолган тақдирда, **10 АҚШ доллари, қиш мавсумида (20 ноябрдан 20 февралгача) эса 25 АҚШ**

доллари миқдориди Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан қоплаб берилди.

**2022 йил 1 майдан бошлаб** ёшларнинг тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш мақсадида Давлат бюджетидан Туризм ва спортни қўллаб-қувватлаш жамғармасига ажратиладиган маблағлар ҳисобидан ҳар бир ташаббускорга **50 миллион сўм миқдориди, жами 10 миллиард сўмгача грантлар ажратилади.**

Грант маблағлари белгиланган тартибда хорижий мамлакатлардан Ўзбекистон Республикасига уч йил давомида камида 200 нафар хорижий туристлар учун тур ташкил қилиш шарти билан ажратилади.

Respublikamizda 24-yanvardan 24-fevralgacha qadar barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni onlayn tizimiga o'tkazildi. Soha xodimlari onlayn darslardan keyin maktab o'quvchilarining bilimi pasayib ketganini aytmog'da. Xo'sh, shunday holatda masofaviy darslar qanday olib boriladi? Onlayn darslarning o'tgan yilgisidan farqli tomonlari bormi?

## Onlayn ta'lim: Bu yil nimalar o'zgardi?

### МАКТАБЛАРДА:

Masofaviy darslar milliy teleradiokompaniyaning telekanallari hamda "Onlayn maktab" telegram kanali orqali berib boriladi. "Onlayn maktab" loyihasi doirasida beriladigan darslar jadvali har kuni "Onlayn maktab" telegram kanali orqali e'lon qilib boriladi.

Xalq ta'limi vazirligining ma'lum qilishicha, bu safar o'qituvchilar uyida emas, aynan o'z ish joyidan turib dars berayotgan fanlari bo'yicha onlayn tarzda o'quvchilarning o'zlashtirishini, uyuq vazifalar bajarilishini hamda o'quvchilar bilimini sinf jurnaliga (elektron kundalik tizimi joriy etilgan maktablarda Kundalik.com tizimiga) baholab borishadi.

Ta'lim jarayoni "onlayn" shaklda amalga oshiriladigan davrda umumta'lim muassasalari va "Barkamol avlod" maktablari pedagog va boshqa xodimlariga, shu jumladan mehnatiga soatbay haq to'lash asosida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarga ish haqi to'lovlari saqlangan holda to'lab beriladi. Ish joyiga sababsiz ravishda kelmagan pedagog xodimga oylik ish haqi yoziilmaydi.

### КАСБ-ХУНАР МАКТАБИ, КОЛЛЕЖ ВА ТЕХНИКУМЛАРДА:

Viloyatdagi 37 ta kasb-hunar maktabi, 14 ta kollej hamda 23 ta texnikumda ham bir oy davomida darslar onlayn shaklda olib boriladi.

Bunda mavjud onlayn resurslardan kelib chiqib, professional ta'lim muassasalaridagi 1920 dan ortiq telegram kanallarida interaktiv darslar orqali, 10 dan ortiq onlayn ta'lim platformasida nazariy darslar tashkil etiladi.



Dars mashg'ulotlari onlayn tashkil etish bo'yicha mas'ullarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida mutaxassislar ishtirokida 2022-yil 20-22-yanvar kunlari o'quv seminarlar o'tkazildi.

Bu yilgi darslarni onlayn shaklda olib borilishda Google kompaniyasining "Classroom" – masofaviy ta'lim tizimidan foydalanish (Google Class) tavsiya etildi.

Bu tizim mutlaqo bepul bo'lib, Google Class o'qituvchilarga uy vazifalarini elektron shaklda yaratish, yig'ish va baholashda yordam beradi. Bundan tashqari, o'qituvchilar vaqtini tejaydigan xususiyatlar mavjud. Masalan, o'quvchilar uchun Google hujjatlarini avtomatik ravishda nusxalash, har bir topshiriq va o'quvchilar uchun Drive papkalar avtomatik ravishda yaratilganligi sababli fayllarni qidirish juda oson.

Viloyat kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasining ma'lum qilishicha, ushbu tizimdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand filiali kompyuter injinerang

fakulteti dekani Odil Mama-rufov ishtirokida ishlab chiqilgan.

### ОЛИЙ ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА

Oliy ta'lim muassasalarida mavjud tajribadan kelib chiqqan holda Moodle, Zoom kabi platformalar orqali onlayn darslar tashkil etiladi. Choraklik, yakuniy nazorat ishlari, imtihonlar platforma orqali amalga oshiriladi. Talabalar belgilangan vaqtda test savollariga masofadan turib javob beradi va baholanadi. Masalan, Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filialida tahsil olayotgan talabalar uchun onlayn darslar va yakuniy imtihonlar Moodle platformasi orqali o'tkaziladi. Platformaga professor-o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan o'quv materiallaridan tashqari mavzularga oid qisqa videooroliklar ham joylashtirib boriladi. Magistratura bosqichida tahsil oluvchi talabalarga salohiyatli xorijlik vatandoshlarning darslari onlayn (vebinar) shaklda Zoom platformasi yordamida tashkil qilib boriladi.

Xurshida  
ERNAZOVA.

Тошкент давлат аграр университети Самарқанд филиалида Корейнинг Халқаро боғдорчилик институти президенти, профессор Ёнг-Беом Лее бошчилигидаги делегация билан учрашув ўтказилди.



## Самарқандда Корея билан ҳамкорликда ин-витро усулида картошка уруғи тайёрланади

Учрашувда филиалда Корея грант маблағи ҳисобидан ташкил қилиниши режалаштирилётган инновацион технологиялар асосида картошка уруғини кўпайтириш лойиҳасининг объекти, республикада картошка ишлаб чиқариш ва унинг уруғчилиги ҳолати, талаб ва имкониятлари тўғрисида фикр алмашилди, - деди ТДАУ Самарқанд филиали бўлим бошлиғи Ҳусниддин Пардаев. - Корея делегацияси аъзоларига лойиҳани амалга

ошириш учун қуриладиган ин-витро лабораторияси ва иссиқхоналар, унинг атрофидаги бинолар ҳамда қурилиши режалаштирилётган АКИС ва унинг худудий чегаралари тақдим қилинди.

Энди Самарқандда картошка уруғини тайёрлаш такомиллаштирилади. Ҳар йили хориждан келтириладиган картошка уруғини ўзимизда етиштириш орқали қишлоқ ҳўжалиги ривожига салмоқли ҳисса қўшилади.

## Ипотека марказлари уй-жой харидидаги овозгарчиликларни енгиллаштирадими?

Президентимизнинг 2021 йил 9 декабрдаги "Бозор тамойилларига асосланган ипотека кредитлари орқали аҳолини уй-жой билан таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармонида асосан Тошкент шаҳри, Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда ипотека хизматларини кўрсатиш марказлари ташкил қилиниши белгиланган.

Ушбу марказларда иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш бўлими, тижорат банклари, давлат солиқ инспекцияси, молия бўлими, маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш маркази, аҳоли бандлигига кўмаклашиш маркази ходимлари хизмат кўрсатади. Шунингдек, тиббиёт бирлашмаси, ёшлар ишлари агентли-



ги бўлимлари, давлат хизматлари маркази, давлат кадастрлари палатаси, адлия бўлими ходимлари ҳам марказларга жалб этилади. Ҳўш, ипотека марказлари аҳолига қандай турдаги хизматларни кўрсатади?

Марказларда қурувчи ташкилотлар, қурилайётган кўп квартиралар уй-жойлар, улардаги квартиралар сони, майдони, қиймати ва

жойлашуви, кредит олиш мумкин бўлган тижорат банклари ва улар томонидан бериладиган кредитларнинг шартлари тўғрисидаги маълумотлар тақдим этилади. Бундан ташқари марказларда субсидия тақдим этиш тўғрисидаги хабарномаларни бериш, уй-жой олди-сотдиси ва ипотека кредити шартномаларини расмийлаштириш, уй-жойга бўлган ҳуқуқни давлат рўйхатидан ўтказиш хизматлари кўрсатилади.

Ҳозирда вилоятимизда Ургут тумани ва Самарқанд шаҳар давлат хизматлари маркази биносиди ипотека хизматларини кўрсатиш маркази ташкил этилди.

Азамат ҚОСИМОВ,  
Марказий банк вилоят бош бошқармаси мутахассиси.

## Ногиронлиги бўлган шахслар хатловдан ўтказилмоқда

Айни кунларда ногиронлиги бўлган шахс муаммоларини ўрганиш бўйича хатлов гуруҳлари ташкил этилди. Ушбу хатлов гуруҳлари ҳамда тузилган штаблар томонидан ногиронлиги бўлган шахслар муаммолари уйма-уй юриб ўрганилиб, уларнинг ижтимоий ҳолати хатловдан ўтказилмоқда.

Вилоятда айни пайтгача бу борада қандай ишлар олиб борилди? Ногиронлиги бўлган қанча аҳоли хатловдан ўтказилди?

Ҳозирги кунда вилоят миқосида тиббий-ижтимоий хизматларни ривожлантириш бошқармаси, тиббий-ижтимоий эксперт комиссияси, соғлиқни сақлаш бошқармаси ходимларидан иборат, 512 кишидан иборат хатлов гуруҳлари ташкил этилди, - дейди вилоят тиббий-ижтимоий хизматларни ривожлантириш бошқармаси бошлиғи Илҳом Ваҳобов. - Ушбу хатлов гуруҳлари вилоятдаги 67147 нафар имконияти чекланган инсонларнинг тиббий-ижтимоий аҳолини



тўлиқ ўрганиб чиқиши лозим. Ўрганиш махсус анкета саволлари асосида олиб борилиб, унда ногиронлиги бўлган шахсларнинг саломатлиги билан боғлиқ, моддий таъминланганлиги, уй-жой таъмири, иш билан бандлиги каби аниқ саволлар асосида жавоблар умумлаштирилади. 10 январдан 19 январгача бўлган муддатда вилоятдаги 13566 нафар имконияти чекланган инсонларнинг аҳоли тўлиқ ўрганилди. Ўрганиш натижаларидан сўнг уларнинг яшаш шароити ва муаммоларига қараб яшил, сариқ, қизил рангларга ажратилади.

Г.МЎМИНОВА.

## Ҳафта охирида айрим жойларда ёмғир ёғади



25 январда вилоятимизда ҳаво ўзгарувчан бўлиб, ёғингарчилик кутилмайди. Айрим жойларда туман тушиши мумкин. Ҳарорат кечаси 0-5 даража совуқ, кундузи 3-8 даража илқ бўлади.

26-27 январда ёғингарчилик бўлмайди. Ҳарорат кечаси 3 даражагача совуқ, кундузи 5-10 даражагача илқ бўлиши мумкин.

28-29 январь кунлари айрим жойларда ёмғир ёғади, туман тушади. Шамол 7-12 метр секунд тезликда эсади, айрим жойларда шамолнинг тезлиги 15-20 метр секундгача кучайиши мумкин. Кечаси 0-5 даража, кундузи 5-10 даража илқ бўлади.

Самарқанд гидрометеорология бошқармаси.

Пандемия сабаб жорий этилган кўпгина чекловлар қаторида Умра зиёратини амалга ошириш ҳам тўхтатилган эди. Бугунги кунга келиб ушбу муборак зиёратга бориш яна йўлга қўйилди. Ўтган ҳафта якунида мамлакатимиздан зиёратчиларнинг дастлабки гуруҳи сафарга чиқди. Жорий йилнинг 1 февралда вилоятимиздан 144 нафар фуқарони зиёратга кузатамиз.

## УМРА

зиёратига бориш талаблари ўзгарган



Пандемиядан олдин 400 нафар самарқандликлар зиёратга боришни ният қилиб, рўйхатдан ўтган. Зарур ҳужжатларни топшириб, тўловларни ҳам амалга оширган эди. Улар пандемиядан олдин 13 миллион 18 минг 880 сўм тўлов қилган бўлса, бугунги кунда қўшимча 4 миллион 770 минг сўм тўлашади. Шундай қилиб Умра зиёрати учун жами тўлов 17 миллион 788 минг 880 сўмни ташкил этмоқда.

Февраль ойида пандемия давригача ҳужжат топширганлар бориб келгандан сўнг, март ойидан бошлаб янги шакллантирилган рўйхатдаги фуқаролар зиёратни амалга оширишни бошлашди.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, хали ҳам карантин талаблари сақланиб турибди. Зиёратга отланганлар, аввало, вакцина олган бўлишлари керак. Яъни, зиёрат учун талаб қилинадиган ҳужжатларга "Moderna", "AstraZeneca" ва "Pfizer" вакциналарини тўлиқ олганлиги тўғрисидаги сертификат ҳам қўшилади.

Зиёратчилар 10 кун сафарда бўлади. Дастлаб 3 кун Мадина мунавварада бўлиб, бир марта Умра зиёратини амалга оширади. Сўнгра 7 кун давомида Макка мукаррамада турадилар, шу вақт оралиғида ҳам бир марта Умра зиёратига рухсат берилди. Бу албатта, пандемия даврида тижилчиларнинг олдини олиш учун эҳтиёт чораси, карантин талабларидан биридир.

Зайниддин ЭШОНҚУЛОВ,  
вилоят бош имом-хатиби.





Молиявий имконияти чекланган ўқувчиларга

# ИМКОНИЯТ БЕРАМИЗ

Вазирлар Маҳкамаси ҳузурдаги хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш агентлиги Президентимизнинг 2021 йил 19 майдаги «Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатдан янги bosқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори билан ташкил этилган.

Бугунги кунда «Innovative Centre» каби марказлар билан ҳамкорликда чекка ва олис ҳудудларда фаолият бошлаган ўқув марказларининг ривожланиши учун китоблар ва дастурларни беминнат етказиб беряпмиз. Ушбу марказда билимли, аммо молиявий жиҳатдан имконияти чекланган ўқувчиларга IELTS имтиҳонларининг молиявий жиҳатдан қулай бўлган Linguaskill, CEFR ва ўқитувчилар учун ТКТ каби чет элда тан олинмаган нуфузли халқаро имтиҳонларни топшириш йўлга қўйилган. Бундан ташқари агентлик боқувчисини йўқотган, «темир дафтар»да рўйхатда турувчи оилалар фарзандларига турли субсидиялар ва юқори натижа қайд этган ўқитувчиларга имтиҳон тўлови учун ҳаражатларни қисман ёки тўлиқ компенсация қилиши мақсад қилган.

Халқаро «ММ Нашрлари» билан ҳам-

корликда вилоятимизда республикада ягона бўлган «Smart kutubxona» лойиҳаси учун 300 минг евро грант ажратилаётгани қилинаётган ишларнинг самарасидир. «Smart kutubxona» нафақат электрон китоблар, балки 20 мингта қоғоз китоблар жамланмаган марказ. Ушбу кутубхонадан ўқувчилар ва чет тилига қизиқувчилар бепул фойдаланиши имконияти яратилган.

**Мухаммадхон СОЛИЕВ,**  
Хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш агентлиги вилоят бўлими раҳбари.

# Отам билимимни имтиҳон қиларди

Отасизлик, ортингда тоғдек таянчинг бўлмаслиги қанчалик оғирлигини падари бузрукворим вафот этгач қалбдан ҳис қиляпман. Отам – Шукрулло Ғуломов 1942 йилда Каттакўрғон туманининг Маллиқ қишлоғида таваллуд топган. Иккинчи жаҳон уруши даври – ҳамма қатори отамнинг отаси Ғулом бобо ҳам урушда бўлган. Урушдан ярадор бўлиб қайтгач, кўп ўтмай оламдан ўтган. Оғир айрилиқдан кейин отам катта онам Тошбуви ва бувам Ёвқоч бобо тарбиясида, беш амаким, аммам қарамоғида улғайди.

Отамнинг ёшлигидан илм олишга интилиши келажақда унинг ўқитувчилик касбини эгаллашига туртки берган. Раҳматли, китоб ўқишни яхши кўрарди. Мактаб кутубхонасидаги 300 га яқин китобни ўқиб чиққан экан. Отам мактабни битирганидан кейин Самарқанд давлат университетининг тарих факультетида ҳужжат топшириб, олийгоҳни сиртки таълим шаклида тамомлади.



Таълим олиш билан бирга туманининг Жонкел қишлоғидаги 18-мактабнинг бошланғич синф ўқувчиларига тарбиячилик қилди, кейинчалик юқори синф ўқувчиларига тарих, география ва жамиятшунослик фанларидан сабоқ берди.

Шу-шу мазкур мактабда 35 йил меҳнат қилди. Шогирдлари тарих фанидан ўтказилган фан олимпиадаларининг тўлиқ вилоят bosқичларида бир неча бор ғолибликни қўлга киритди. Самарали меҳнати учун туман халқ таълими бўлими, вилоят халқ таълими бошқармасининг мақтов ёрлиқлари билан тақдирланди.

Отам ўқитган собиқ ўқувчилар бугун жамиятимизнинг турли соҳаларида меҳнат қилмоқда ва улар яқин-яқингача отамни йўқлаб туришарди. Сўхбатлашсам, отам ҳақида фақат илқ фикирлар билдиришарди.

Отам менга ҳам мактабда тарих фанидан дарс берган. «Инсон дунёга келгани, доимо илмга интилиши, бирор касб-хунарни эгаллаш лозим», дерди дарсларда. Таалабалик йиллари отам «фарзандларим ҳам шу жойларда ишласа» деб орзу қилар экан. «Яхши ният қилсанг, етарсан муродга», деб бежиз-га айтишарди. У кишининг насихатларига амал қилиб, илм йўлини танладим ва ҳозирда Самарқанд давлат университетининг юридик факультетида фаолият юритапман.

Бугун таълим тизимида амалга оширилаётган ишлар, ўқувчи-талабаларга яратилаётган имкониятлардан жуда миннатдор эканлигини кўп таъкидларди. Нафақатда бўлишига қарамасдан, мамлакатда бўлаётган ўзгаришлар ва янгиликлардан доимо хабардор бўлиб турар, газета-журналларни мунтазам мутлола қилиб борарди.

Куз ойларида ота-онамдан хабар олгани қишлоққа борганида отам бир масалада фикримни билмоқчилигини айтди: «Конституция бўйича Президент ваколатларини бошқа шахсга вақтинча ўтказиш мумкинми?»

Саволга жавоб берганидан кейин кўрпачанинг тагидан газетани олди-да, шу ҳақда ёзилган мақолани ўқиб чиққанини айтди. Чунки отам беҳуда савол бермас ва бу орқали мени имтиҳондан ўтказиб олирди. Бу эса мени ўқитувчилик касбига нисбатан масъулият билан ёндашишга ундарди.

Ана шундай зиёли муҳтимада – отам, онам Турсунтош Абдуҳакимова тарбиясида саккиз фарзанд камолга етдик.

Умр - оқар дарё. Дунёда доим гуллаб турадиган, барги тўқилмайдиган дарахнинг ўзи бўлмас экан. Отам, устозим Шукрулло Ғуломов бугун жисман орамизда бўлмаса-да, руҳан доим биз билан бирга, қалбимизда.

**Акмалжон ҒУЛОМОВ.**

# Коррупцияга қарши кураш хартияси

Бизнесни ривожлантиришда шаффоф тизим ярата оладими?

2021 йил августда бир қатор масъул идоралар томонидан республикада фаолият кўрсатадиган субъектлар, уларнинг филиаллари, хорижий давлатларда ишлайдиган ваколатхоналарига нисбатан, уларнинг ҳуқуқий шакли, фаолият тури ва доираси, даромадлари ва ишчилар сонидан қатъий назар, қўшилиш учун очиқ бўлган Ўзбекистон бизнесининг «Коррупцияга қарши курашиш хартияси» қоидалари қабул қилинди.

«Хартия аъзолигига қўшилиш ва ягона Реестрни юритиш тартиби тўғрисида»-ги Низом ишлаб чиқилди. Низомда Хартияга ахтиёрлик асосида қўшилиш, қулай ишбилармонлик ва жозибадор инвестиция муҳити яратиш кенг ўрин берилган. Республикада ишбилармонлик, қонунийлик, очиклик ва ошқораликка асосланган коррупцияга қарши таъминларни, шунингдек, давлат ҳокимияти органлари ҳамда хусусий сектор билан муносабатларда ҳам, коррупцияни аниқлаш ва олдини олиш тизимини жорий этишга қаратилган.

Шунингдек, корхоналар ўз фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари ва мавжуд бўлган коррупция хавфларидан келиб чиққан ҳолда коррупцияга қарши дастурларни ишлаб чиқиши, хавфларни бошқариш

стратегияси ва коррупцияга қарши мувофиқлик дастурини амалга ошириши белгиланган. Корхонанинг қонунийлик, яхлитлик, ошқоралик ва профессионаллик тамойилларига асосланган ишбилармонлик маданиятини шакллантириш ҳам шулар жумласидандир.

Бундан ташқари, раҳбарлардан самарали ва тегишли хавфларни бошқариш тизимига асосланган корхонанинг коррупцияга қарши сиёсатини амалга ошириш учун жавобгар бўлган шахсларни белгилаш назарда тутилган.

Хартияга аъзо бўлган субъектларга Президент ҳузурдаги тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил, Коррупцияга қарши кураш агентлиги директори ва Ўзбекистон Савдо-сано-

ат палатаси раиси имзоси билан номуайян муддатга сертификат берилди. Бунинг афзаллиги рейтинг тенг бўлган икки корхонанинг Хартияга аъзо бўлгани барча йўналишларда имтиёз ёхуд устунликларни қўлга киритади.

Шартномавий муносабатларни ўрнатишда корхоналарнинг ўз ҳамкорлари, пудратчилари ва бюртмачиларига коррупцияга қарши самарали кураш тамойилларини қўллаш ҳақидаги ёзма ишончномани тақдим этади. Мазкур тамойилларнинг бузилиши улар билан ҳамкорликни тугатиш учун асос сифатида кўрилиши мумкин.

**Эгамберди РЎЗИЕВ,**  
Савдо-саноат палатаси вилоят ҳудудий бошқармаси бошлигининг биринчи ўринбосари.

## Жиноят ва жазо

Хатосидан тўғри хулоса чиқармаган инсон ўзигагина жабр қилади. Афсуски, айрим нафс қуллари бунинг тушунмайди ёки тушунишни истамайди. Суднинг қора курсисига иккинчи маротаба ўтирган пастдарғомлик фермер тақдири бунга бир мисол.

# ЕР СОТГАНЛАР ЕТТИ ЙИЛГА «КЕСИЛДИ»



Баҳрон Хўжаев туманининг олди фермерларидан бўлмаса-да, меҳнатга яраша даромад топиб, ҳеч кимдан кам бўлмай яшаб келаётган эди. Бироқ, тезроқ бойиб кетиши исоти уни турли йўللарга бошлади. Биринчи маротаба у 2020 йилда, ўзи раҳбарлик қилган хўжалик мулкни ноқонуний ўзлаштирган эди. Мазкур тамойилларнинг бузилиши улар билан ҳамкорликни тугатиш учун асос сифатида кўрилиши мумкин.

**Эгамберди РЎЗИЕВ,**  
Савдо-саноат палатаси вилоят ҳудудий бошқармаси бошлигининг биринчи ўринбосари.

олишди. Унга кўра, жиноий гуруҳ энди ер савдоси, аниқроғи, фирибгарлик билан шуғулланадиган бўлди.

Харидорлар ҳам узоқ куттирмади. Солиқчининг олдига келган икки миқдори ер олиб, боғдорчилик билан шуғулланмоқчи эканликларини айтганда «қопқон» эшиги очилган эди. Жонибек уларга «яхшилиқ» қилган бўлиб, бир таниш фермери орқали ишни осон хал қилиш мумкинлигини тушунтирди. Баҳрон ҳам паст кетмади, фермер хўжалигига қарашиб 15 гектар ерни уларга бериш эъзига 13 минг АҚШ доллари сўради. Харидорларнинг талабига рози бўлиб, пул тўплагани кетганда шериклар иш пишиди, деб ўйлашганди. Аслида эса улар «қопқон»га тушишди. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган ходимлари томонидан ўтказилган тезкор тадбирда «ер сотувчи»лар далилий ашёлар билан қўлга олинди.

Энди улар бу ноқонуний ҳарақатларининг сабаб ва оқибатини 7 йил тиконли симлар ортида ўйлаб кўради.

**Фурқат РАҲМОНОВ,**  
вилоят судининг судьяси.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### ДАЪВОЛАР БЎЛСА...

Булунғур туманидаги «BULUNG'UR GRAND» масъулияти чекланган жамияти ўз устав фонди миқдорини 50 000 000 (эллик миллион) сўндан 7 950 000 (етти миллион тўққиз юз эллик минг) сўм миқдорга камайтирмакда.

Шу муносабат билан унга билдирилмаган барча даъволар газетда эълон чоп этилган, бир ой давомида қабул қилинади.

**Манзил: Жомбой тумани Қорамўйин маҳалласи.**

\*\*\*

Самарқанд шаҳридаги «ASALINA-GUZALINA» нодавлат таълим муассасаси (СТИП: 207046730) ўз устав фонди миқдорини 3 000 000 (уч миллион) сўм этиб белгилади.

Шу муносабат билан унга билдирилмаган барча даъволар газетда эълон чоп этилган, бир ой давомида қабул қилинади.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Беруний кўчаси, 115-«Б» уй.**

\*\*\*

Жомбой туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Маматқулов Отабек Болбеков нотариал идорасида марҳум Султонов Жўракулга (2021 йил 12 февралда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Маматқулов Отабек Болбеков нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Жомбой тумани Сарой кўчаси, 15-уй.**

\*\*\*

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Исақулова Нигора Турдиқуловна нотариал идорасида марҳум Ашрапов Икром Эрашевчига (2021 йил 18 июнда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Исақулова Нигора Турдиқуловна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Абу Райҳон Беруний кўчаси, 12-уй.**

\*\*\*

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасида марҳум Курбанов Карим Салиховичга (2011 йил 24 декабрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Боғдоқ кўчаси, 1-уй, 3-хона.**

\*\*\*

Пайариқ туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ортиқбоев Азиз Азаматович нотариал идорасида марҳум Чамбилова Хонимойга (1993 йил 2 январда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилган. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Ортиқбоев Азиз Азаматович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Пайариқ тумани Челақ шаҳарчаси, Истиқлол кўчаси, 73-уй.**

\*\*\*

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Аминов Машҳуржон Юсупович нотариал идорасида марҳум Шукрурова Мухабат Сунхатевнага (2020 йил 11 майда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Аминов Машҳуржон Юсупович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Сугдиёна маскани, 14/12-уй.**

\*\*\*

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Аминов Машҳуржон Юсупович нотариал идорасида марҳум Шукрурова Мухабат Сунхатевнага (2020 йил 11 майда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Аминов Машҳуржон Юсупович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Сугдиёна маскани, 14/12-уй.**

\*\*\*

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ҳазратқулов Маҳмуд Муминқулович нотариал идорасида марҳум Халилова Олия Қодировнага (2018 йил 12 мартда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Ҳазратқулов Маҳмуд Муминқулович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Амир Темур кўчаси, 36-уй.**

\*\*\*

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Юсупова Дилсура Хасановна нотариал идорасида марҳум Худойбердиев Хомидга (1993 йил 27 январда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Юсупова Дилсура Хасановна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Абдурахмон Жомий кўчаси, 64-уй.**

\*\*\*

Пайариқ туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ортиқбоев Азиз Азаматович нотариал идорасида марҳум Мукмутов Хайит Абдурахимовичга (2020 йил 28 сентябрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилган. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Ортиқбоев Азиз Азаматович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Пайариқ тумани Челақ шаҳарчаси, Истиқлол кўчаси, 73-уй.**

\*\*\*

Пайариқ туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ортиқбоев Азиз Азаматович нотариал идорасида марҳум Мукмутов Хайит Абдурахимовичга (2020 йил 28 сентябрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилган. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Ортиқбоев Азиз Азаматович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Пайариқ тумани Челақ шаҳарчаси, Истиқлол кўчаси, 73-уй.**

\*\*\*

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасида марҳум Курбанов Карим Салиховичга (2011 йил 24 декабрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Боғдоқ кўчаси, 1-уй, 3-хона.**

\*\*\*

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасида марҳум Курбанов Карим Салиховичга (2011 йил 24 декабрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Боғдоқ кўчаси, 1-уй, 3-хона.**

\*\*\*

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасида марҳум Курбанов Карим Салиховичга (2011 йил 24 декабрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Боғдоқ кўчаси, 1-уй, 3-хона.**

\*\*\*

Л № 172612 рақамли диплом ва унинг иловаси йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

Самарқанд туманидаги 53-умумий ўрта таълим мактабидан 2010 йилда Лутфилоев Икромжон Иззатиллоевич номига берилган У № 4294689 рақамли умумий ўрта таълим тўғрисидаги шаҳодатнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

Тоилқ туманидаги 7-умумий ўрта таълим мактабидан 2008 йилда Асламов Маъмуржон Мухтор ўғли номига берилган У № 3131563 рақамли умумий ўрта таълим тўғрисидаги шаҳодатнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

Самарқанд шаҳридаги 8-ўрта мактабдан 1995 йилда Джунайдуллаев Улғбек Эркинович номига берилган АО № 124770 рақамли ўрта таълим тўғрисидаги шаҳодатнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

Самарқанд шаҳридаги 8-ўрта мактабдан 1993 йилда Джунайдуллаев Улғбек Эркинович номига берилган ВУ № 244781 рақамли тўлиқсиз ўрта таълим тўғрисидаги гувоҳнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

Самарқанд шаҳридаги 12-кечки ўрта мактабдан 1988 йилда Ильябаева Мазоль Ашировна номига берилган Д № 441931 рақамли ўрта таълим тўғрисидаги аттестат йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

Самарқанд давлат чет тиллар институти академик лицейидан 2013 йилда Мустафоева Зарнигор Хусеновна номига берилган рўйхат рақами 0948,

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ортиқбоев Азиз Азаматович нотариал идорасида марҳум Мукмутов Хайит Абдурахимовичга (2020 йил 28 сентябрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилган. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Ортиқбоев Азиз Азаматович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Пайариқ тумани Челақ шаҳарчаси, Истиқлол кўчаси, 73-уй.**

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасида марҳум Курбанов Карим Салиховичга (2011 йил 24 декабрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Боғдоқ кўчаси, 1-уй, 3-хона.**

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасида марҳум Курбанов Карим Салиховичга (2011 йил 24 декабрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Боғдоқ кўчаси, 1-уй, 3-хона.**

\*\*\*

► Саидризо Ализода таваллудининг 135 йиллигига

## Эрон, Туркия, Афғонистонда ЮҚОРИ ЛАВОЗИМЛАРГА таклиф қилинган эди

**Бу инсон 1917 йилда кўҳна кентда араб графикаси асосида нашр этилган биринчи ўзбек ва тожик алифболарининг муаллифи бўлган. Озарбайжон, рус, форс, араб, инглиз, немис, француз, итальян ва иброний сингари ўндан ортиқ тилни яхши билган.**

С.А. ва бошқа 20 га яқин тахаллуслар билан ижод қилган бу инсоннинг номи узок вақт ватандошларимизга ҳам қандай далиллар топилмаса-да сохта номаълум бўлиб келган. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси Сайди Умировнинг ёзишича, қомусий билим соҳиби журналист, ношир, шоир, тилшунослигидан ташқари муаллим, мураббий, муҳаррир, мутаржим, муганний, муаррих, актёр ва режиссёр ҳам бўлган. Унинг 500 га яқин асари таржималари нафақат Марказий Осиё, балки Эрон, Покистон, Афғонистон, Туркия, Озарбайжон, Тожикистон, Татаристон ва Қримда чоп этилган.

### БУЮК МУТАФАККИРНИНГ ДУНЁГА КЕЛИШИ

Саидризо Ализода 1887 йил 15 февралда туғилган. Олти йил мадрасада ўқиган. 1904 йилда у янги турдага дадид мактабда дарс беришни бошлаган. 1906 йилда деҳқонлар фарзандлари учун мактаб очган.

1916-1922 йилларда Бехбудийнинг "Падаркуш", Молернинг "Зўраки табиб", Узеир Ҳожибековнинг "Аршин мол олан", "Лайли ва Мажнун", "Асли ва Карам", Ҳусайн Жовиднинг "Шайдо", "Шайх санъон" асарларини сахнага қўйишда катнашди, актёр сифатида айрим ролларни ижро этди.

Самарқандда яшайдиган руслар учун кечки курслар очиб, ўзбек ва форс-тожик тилларини ўқитди. Демутов босма-хонасига харф терувчи бўлиб ишга кирган. Матбуотда фаол меҳнат қилган.

1933 йилдан Самарқанд давлат университетида араб ва форс тилларидан дарс берган профессорни 1937 йилда

жосуслиққа айблаб, ҳибсга олишди. Икки йил давом этган терговда ҳеч қандай далиллар топилмаса-да сохта айблов билан у беш йилга озодликдан маҳрум қилинади. Кейинчалик бу муддат узайтирилади. Самарқанд, Тошкент, Тоболск, Владимир турмаларида ўтирган Саидризо Ализода 1945 йил 24 декабрда сил касалидан вафот этади.

Қисқача тарих шундан иборат. Аммо бу маълумотлар қомусий олимнинг бутун ҳаётини, шахсиятини, ўндан олинадиган ибратни очиб беролмайди.

### ЁШЛАР УЧУН ҲАҚИҚИЙ КУМИР

Ализода ҳаёти билан танишар экансиз, у бугунги ёшлар учун том маънода ибрат бўла олишига ишонч ҳосил қиласиз. Негаки, у иқтисодий қийинчилик даврида, қолаверса, бугунгидай ахборот технологиялари бўлмаган бир вақтда ўндан ортиқ тилларни ўрганган.

Этиборлиси, у аксарият тилларни муқтадил ўзлаштирган. Олган билмалари натижасида улкан таржимонлик мактабига асос солган. Оқдид мисол, унинг "Меҳробдон чаён" романини тожик тилига қилган таржимасига ўқувчи ва мутахассислар асар тожик тилида ёзилгандай таассурот қолдиришини билдирган.

Саидризо Ализода "Капитан қизи", "Борис Годунов", "Дубровский", "Евгений Онегин", "Тирриш", "Ревизор", "Очилган кўрик", "Цемент", "Пўлат қандай тобланди" асарларини русчадан ўзбек, форс, тожик тилларига ўтирган, французчадан Молер, Мопассан, инглизчадан Эптон асарларини таржима қилган. Ибн Сино, Фирдавсий, Низомий,

Фузулий, Навоий асарларидан рус тилига таржималари мутахассислар томонидан эътироф этилган.

### МАНТИҚ ЧЕГАРАСИНИ БУЗИБ ТАШЛАГАН

Аллома фаолияти, унинг ижоди билан танишиш жараёнида бу фикрга тўлиқ қўшилиш. Чунки у қисқа умри давомида мактаблар учун 12 та дарслик ёзган, дастурлар тузган.

Таржималарини қўшмаганда ҳам қамоққа олинишдан аввал ёзган 3 та китоби кейинчалик Лоҳурда чоп этилган, қўлёзмалари шунчаки қораламалар бўлмаганидан далолат беради.

Ализода манتيқ чегарасини бузган ҳақида гап кетганда у космосга оид алоҳида китоб ёзганини ҳам мисол келтириш мумкин. Технология ривожланган, илм олиш учун имкониятлар кенг бўлган бугунги даврда ҳам фазо илми борасида кучли мутахассислар бармоқ билан санарли. Бироқ ўша даврда Ализодининг бу борада ёзган китоби 2000 йилларда Россия космонавтикаси музейлари ассоциацияси (АМКОС) томонидан ҳам юқори баҳоланган.

### ЛАВОЗИМГА ЭМАС, ХИЗМАТГА ШАЙ ТУРГАН

Тарихда шундай мисол бор: машҳур аллома, етук олим, ҳазрат Абу Ханифага қозилик лавозими таклиф қилинади. Аммо Имом Аъзам бу таклифни рад этган экан.

Тақдирни қарангки, Ализода ҳаётида ҳам айни шунга монанд воқелик юз беради. Яъни, ўтган асрнинг 20-йилларида бир қатор кўшни давлатлар – Эрон, Туркия, Афғонистонда Ализода юқори лавозимларга таклиф қилинган. Масалан, Афғонистоннинг биринчи президенти Омонуллох Хон Ализода ушбу мамлакатда таълим ва матбуот соҳасида



ишлашга таклиф қилади. Бунда олимнинг розилигини олиш учун ҳатто икки марта ўзининг маслаҳатчиси Муҳаммад Довудни Самарқандга юборган. Аммо Саидризо Ализода ҳар сафар таклифни миннатдорчилик билан рад этган.

Бундан у нима ютди, деган савол туғилиши табиий. Маълумотларга кўра, Ализодининг илмий фаолияти фақат таржима билан чекланмаган. У "Туркистон тарихи", "Ислон тарихи", "Диний қонунлар" илмий асарлари муаллифи. Икки жилдли, 61 минг сўзни ўз ичига олган биринчи русча-тожикча луғатни тузган.

Туркистон мактаблари учун арифметика, тарих, география, астрономия, табиятшунослик ва араб грамматикаси бўйича дарсликлар ёзган.

### ҲАЛҚ КЎП ВА ХЎП ЎРГАНИЛИШИ ЗАРУР

Саидризо Ализодини элга танитишда аввало, геолог набираси Фарҳод ақини, қолаверса, йирик олим Ғайбуллох ас-Саломнинг хизматлари катта. Тўғри, кейинчалик ҳам жадидчиликни тадқиқ этган олимлар у кишининг ижоди билан қизиққан.

Бироқ Ализода ҳали чуқур ўрганилиши, асарлари, илмий фаолияти тадқиқ этилиши керак. Қолаверса, алломанинг бугунги авлод учун ибрат қилиб кўрсатишга аризулик сифатлари шу қадар кўпки, улар фақат ўрганишни, илмий мулоҳазаларни тақозо этади.

Бундан ташқари, Англия разведкаси жосуслари унинг боши учун 50 минг фунт-стерлинг муқофот ажратган, дейилади. Хорижда машҳур бўлган аллома бошқарувчи томонидан халқ душманига чиқариб, ҳибсга олинади. Бундай драматик тақдирнинг ўзи ҳақида том-том асарлар ёзилса арзийди.

Shu kunlarda bir guruh tilshunos olimlar va jurnalistlar tomonidan lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosidagi ayrim harflarni o'zgartirish harakati davom etmoqda. Ular bu faoliyatiga Prezidentimizning alifboni takomillashtirish haqida olimlarga bergan topshirig'ini asos qilib ko'rsatmoqda.

## Alifbomizdan «с» sirg'alib ketmasin

To'g'ri, davlatimiz rahbari alifboni takomillashtirishga ko'rsatma bergan. Ammo harflarni o'zgartirish harakati demagan bo'lsa kerak. Chunki bu alifbo mana, qariyb 30 yildirki, xalqimizga benuqson xizmat qilib kelmoqda. Balki unda qanaqadir juz'iy kamchiliklar bordir. Bu tabiiy holat. Nega desangiz, dunyodagi birorta yozuv tamoman mukammal emas.

Masalan, ingliz tilida 44 ta tovush mavjud. Ana shu tovushlar 26 ta harf va bitta tutuq belgisi bilan ifodalanadi. Nemis alfavitida esa bitta "ch" tovushi to'rtta: "t, s, c, h" harflar bilan ifodalanadi. "sh" tovushi uchta "s, c, h" harflari bilan yoziladi. Boshqa xalqlar alifbosida ham shu xildagi harf birikmalari uchraydi. Ammo negadir, ular alifbolarini isloh qilishga oshiqmayapti. Fikrimizcha, alifbo qulayligi bilan emas, balki tildagi barcha zarur tovushlarni ifodalashi bilan qadrlir. Shunday bo'lmaganida, xitoylar, yaponlar va koreyslar allaqachon yozuvlarini noqulay, deya o'zgartirishardi.

Hozirgi yozuvimiz yana shunday si bilan ham qadrlir, u judayam universal. Xalqaro standartdagi istalgan kompyuter, noutbuk, planshet va boshqa turdagi gadjetlar klaviyatura bilan bemaol yozaver-sa bo'lardi.

Qolaversa, keyingi 30 yilda xalqimizning butun bir avlodi shu yozuvga o'rgandi, ko'nikdi. Buning ustiga yangi yozuvimiz butun dunyoga tarqalib ulgurdi. Ishonch hosil qilish uchun istalgan uyali telefon apparatining o'zbek tilidagi versiyasini ochib ko'rishingiz mumkin. Endi ularni yana qaytadan chalasavod qilib, chalkashtirish mutlaqo

yo'l qo'yib bo'lmaydigan hol, deb o'ylayman.

45 yildirki, ta'lim sohasida ishlab kelaman. Biroq shu yillar davomida birorta o'qituvchi, o'quvchi, muharrir yoki noshir tomonidan alifbomizga nisbatan arziqli tanqidiy fikr eshitmadim. Shu bois bo'lsa kerak, pedagog-xodimlarimiz va yoshlarimizning aksariyati harflarning o'zgartirilishiga qarshi. Bunga aholi o'rtasida so'rovnomamo'tkazib, to'liq ishonch hosil qilin-di. Kun.uz internet nashrida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, BMTning O'zbekistondagi global loyihasi va Oliy Majlisning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi o'tkazgan so'rovnomamo'ltirib etgan respondentlarning 76 foizi harflar o'zgarishiga qarshi ovoz bergan.

Men bu yerda alifbo islohoti xalqimiz ma'naviyati va davlatimiz iqtisodiyotiga qancha zarar keltirishi haqida o'xtalmayman. Bu borada tegishli mutaxassislar o'z so'zini aytgani ma'qul.

Alifbomizni chinakam takomillashtirish masalasiga kelsak, eski kiril yozuvida bo'lgan bitta kamchilik yangi lotincha yozuvimizga ham ko'chib o'tgan. U ham bo'lsa, sirg'aluvchi "j" tovushini ifodalaydigan alohida harf yo'q. Men shu tovushni ifodalash uchun alifbomizga yetishmay turgan "c" harfi bilan to'ldirishni taklif qilaman. Ilim-fan va internetda keng qo'llanadigan "w" harfi ham kiritilsa, milliy yozuvimiz yanada bekami-ko'st bo'lardi.

**Xudoyberdi KOMILOV,**  
oliy toifali pedagog,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

► Мулоҳаза учун мавзу


Инсон ҳаётда болам, деб яшайди. Энг ширин таомларни аввало, фарзандига раво кўради. Энг қиройли кийимларни болам кийсин, дейди. Фарзанди бетоб бўлса, дунё кўзига тор кўринади. Сув деса, бол тутуди, нон деса, қанд беради. Аммо кейинги пайтларда ҳаётга энгил-елпи қараб, оиласи, болаларини ташлаб кетаётган оталар негадир кўпаяётгандай. Бундан эса аввало, кўзлари жовдираган бегуноҳ болалар меҳрга зор бўлиб қолмоқда. Уларга судлар орқали алимент ундириб берилаётганига қарамай, бўйин товлаб қочиб юрганлари қанча. Аммо алимент ота меҳрининг ўрнини босолмайди.

## АЛИМЕНТ ота меҳри ўрнини боса оладими?

Оила бузилишларининг ижтимоий, моддий, маънавий сабаблари кўп. Биринчиси, ота-оналарни тезроқ «қарздан» қутулиш учун ўғилни барвақт уйлантириб қўяётгани, деб ўйлайман. Оқибатда на касби кори, на оила қуришга тайёргарлиги бўлган ёш ота турмуш муштарига дош беролмай, оилани ташлаб кетишга мажбур бўляпти. Бошқа бир сабаби, оила қуришга энгил-елпи қараб, «севишиб» турмуш қўраётганлар «севи олови» сўнғач, рўзгор юқини тортиш қийин эканлигини кўриб, ажралишга тушиб қолишди: «характерлар тўғри келмабди».

Менимча, ота-оналар бунга жиддий қарашлари керак. Йигит, қиз бирор хўнар эгаллаб оила юқини бемалол кўтарадиган бўлганидан кейин бир ёстиқча бош қўйишлари керак. Моддий таъминот етарли бўлган оилада ўзаро келишмовчиликлар кам бўлади.

Фарзанд кўраётганликлари учун ажралишга ҳам шошмаслик лозим. Сабр-тоқат билан узок йиллардан



кейин фарзанд кўраётганлар қанча. Оилага энгил-елпи қараб, гулдек фарзандларини зор қақшатиб ташлаб кетаётган оталардан алимент ундиришининг ўзи камлик қилади. Зарур бўлса, маъмурий жавобгарликдан ташқари ажралиш сабаблари характерига қараб, жиноий жавобгарлик ҳам бўлиши керак. Ана шунда оилани ташлаб кетаётганлар камаярмиди? Ҳаёт фақат байрамлар, кайфи-сафо, кўнглихушиқлардан иборат эмас. Ана шуларни кўмасб болаларни тирик етим қилиб кетаётган ёш оталар оила қўрач, унинг маъсулиятини ҳам чуқур ҳис этиши лозим.

**Тоғаймурод ШОМУРОДОВ.**

Болалиқдан Эргаш Жуманбулбул, Фозил Йўлдош, Ислон Назар ўғли, Амирқул Пўлкан ўғлининг дoston ва айтувларидаги эзгуликлар таъсирида ўсдик.

Афсуски, бугун вилоятимизда бахшичилик, яъни халқ оғзаки ижодига эътибор сусайгандек туялماпти. Фольклор дасталари ҳам санокли. Турли тadbирларда дostonлар деярли айтилмайди. Ваҳоланки, телевизорда Сурхондарё, Қашқадарё бахшичлари, Хоразм оқинлари асарлари бериб борилмапти.

Турди ТУРСУНОВ,  
Пайарик тумани.

## Самарқандда ҳам бахшилар кўп...

Миллий ўзлгимиз, қадимий тарихимиз ва тилимизни, ҳаёт тарзимизу аънава ва урф-одатларимизни ўзда мужассам этган, умумбаشارий маданиятнинг ажралмас қисми сифатида тан олинган бахшичилик санъати атоқли бахши-шоирларимиз, фольклоршуносларимизнинг фидойи меҳнати, ижодий тафаккури билан асрлардан асрларга ўтиб келмоқда.

Халқимизнинг юксак бадий даҳоси билан яратилган ушбу ноёб санъатини асраб-авайлаш ва ривожлантириш бўйича нафақат мамлакатимизда, балки вилоятимизда ҳам муайян ишлар амалга оширилмоқда.

Жумладан, вилоятимизнинг Нуробод, Қўшрабoт, Булунғур, Нарпай, Паст Даргом, Пахтачи, Каттақўрғон туманларида 10 нафар бахшилар маданият марказлари ҳамда болалар мусиқа ва санъат мактабларида бахшичилик санъатини ёш авлод онгига синдириб келмоқда.

Ҳар йили "Ёшлар ойлиги" доирасида "Янги Ўзбекистон ёшлари бирлашайки!"

### Афанди нега буюк?

Афанди дўконга кириб, қарзга ўн дона тухум сўради. Сотувчи унга ҳисоб-китобга тўғри бўлсин, деб сизга ўн битта тухум беряпман, деди.

Афанди уйига келиб қараса, тухум ўн та чиқди. Эртасига келиб, сотувчига кеча адашганини айтди. У эса тан олмади.

Дўкондаги харидорлар Афанди ранжиди, энди сотувчини бошлаб тазирини беради, деган ўйда турарди. Аммо у 11 та тухумга пул тўлаб дўкондан чиқиб кетди. Атрофдагилар наҳотки доно

Афанди шугина сотувчига бас келолмади, деб хайрон бўлишди. Аммо бир дона тухумга талашиб-тортишиб, пачакилашиб ўтирса, Афандининг донишмандлиги, буюклиги қаерда қолади.

Аслида ҳам кўпчилик ноҳақлик, адолатсизликка дуч келган кишиларнинг муаммоларини донишмандона ҳал қилиб, уларнинг ҳақларини олиб берувчи кишилар ўзлари дуч келган арзи-маган адолатсизликларга кўз юмиб кетаверади.

**Ж.МАЖИДОВ,**  
Оқдарё тумани.

► Коса тагида нимкоса

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonа manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

**MATBUOT UYI**

**Zarafshon**

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 22 012 nusxada chop etildi. Buyurtma 54. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.